

## CHO‘LPON HIKOYALARIDA NIKOH TO‘YIGA OID ETNOGRAFIK FOLKLORIZMLARNING O‘RNI

**To‘rayeva Iroda**  
QarDU mustaqil izlanuvchisi

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o‘zbek hikoyalarida keltirilgan nikoh to‘ylariga oid etnografik folklorizmlar tahlil qilingan. Shuningdek, sovchilarni kelishi, yor – yor qo‘shig‘ini aytilishi, kelin kelishi, gulxan yoqilishi, kuyov kelinni ko‘tarishi kabi odatlar to‘y marosimiga oid jihatlarni ochib bergan. Hikoyada qalamga olingan “kelin kelganda gurullatib yoqilgan olov alangasi osmonga chiqqani” aslida majburan turmushga uzatilayotgan qizning qalbidagi hasrat o‘tining kuchini anglatishi mohirona izohlangan.

**Kalit so‘zlar:** Hikoya, to‘y, qo‘noq, sovchi, yor – yor, to‘y arafasi, to‘y epizodlari, nikoh to‘yi, kelin keldi.

### АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируются этнографические фольклоризмы, связанные со свадьбой, представленные в узбекских рассказах. Кроме того, такие обычаи, как прибытие жениха, пение песни йор-йор, прибытие невесты, зажжение костра и жених, несущий невесту, раскрывают аспекты свадебной церемонии. В рассказе ловко поясняется, что то, что “пламя костра, ревущего при приходе невесты, поднялось к небу”, на самом деле означает силу страсти в сердце девушки, которую принуждают выйти замуж.

**Ключевые слова:** Рассказ, свадьба, гость, свадебный ведущий, йор - йор, канун свадьбы, эпизоды свадьбы, свадьба, невеста пришла.

### ABSTRACT

This article analyzes the ethnographic folklorisms associated with the wedding, presented in Uzbek stories. In addition, customs such as the arrival of the groom, the singing of the yor yor song, the arrival of the bride, the lighting of the bonfire and the groom carrying the bride reveal aspects of the wedding ceremony. The story deftly explains that the fact that “the flame of the bonfire roaring at the arrival of the bride rose to heaven” actually means the power of passion in the heart of a girl who is being forced to marry.

**Keywords:** Story, wedding, guest, wedding presenter, yor - yor, wedding eve, wedding episodes, wedding, the bride came.

O‘zbek romanchiligida endigina shakllanayotgan davrda maydonga kelgan “Kecha va kunduz” romani hayotiyli, milliy ranglarga boyligi, tabiiyligi va samimiyligi bilan qahramonlar karakterining butunligi va to‘kisligi bilan realizm tantanasiga katta xissa qo‘shdi.<sup>1</sup> “Kecha va kunduz” romani kabi buyuk asar yozilishiga 20-yillarda yozilgan “Qor qo‘ynida lola” asari asos (xamirturish) bo‘lib xizmat qilgan. Hikoya keyinchalik yaratilgan romandagi bosh g‘oya – har ikki asarning markaziy g‘oyasi ekanligi shubhasizdir.<sup>2</sup>

Abdulhamid Cho‘lponning “Qor qo‘ynida lola” hikoyasida endigina 17 yoshga chiqqan yoshgina qiz Sharofatxonni otasi majburan “qarib quyilmag‘on, achib suyilmag‘on” eshonga nazr qilishi voqeasi tasvirlangan. Hikoyada Qumribush eriga sovchilar kelgani haqida shunday deydi: “Ichkarida xotinlar bor, siz tashqari uyga kirib turing, qo‘noqlarga osh-suv qilg‘on edim, men sizga osh olib chiqay!”

Bu parcha orqali sovchilar kim bo‘lishidan qat‘iy nazar odat bo‘yicha quruq qaytarilmagani, ularni “qo‘noq”, ya‘ni mehmon sifatida kutib olib, osh-suv qilingani anglashiladi.

Demak, kelgan sovchilar kimligi to‘g‘risida xotin eriga ma‘lum qilgan:

– Yaxshi ham kelib qoldingiz, otasi, qizingizga sovchilar kelib, men nima deyishni bilmay turib edim!

– Kim ekan ular, qaerdan ekan?

– Anovi Aziza otin bilan Rustam akaning xotini... o‘zingizning eshoningiznikidan sovchi bo‘lib kelishibdirlar...<sup>3</sup>

Samandar aka bu gapdan mamnun bo‘lib, yolg‘iz qizi, mahallasidagi eng ko‘rkli, chevarlikda, sho‘xlik va o‘ynoqilikda bitta-yu bitta Sharofatxonni qari eshonga uzatishga rozi bo‘ladi. “Bitta qizimiz bo‘lsa, hazrat eshonimizg‘a tutdik, sadag‘alari ketsun!” – deydi u. Xotini Qumribush uning kutilmagan bu qaroridan rangi oqaradi, ko‘karadi va suvratdek qotib devorga suyalib qoladi.

Shundan so‘ng hikoyada to‘y tasviri keltirilgan.

To‘y kishilar hayotida muhim voqea hisoblanadi. U o‘z ichiga juda ko‘plab urf-odatlarini qamrab olgan. Folklorshunos B.Sarimsoqov to‘y atamasiga qo‘yidagicha ta‘rif beradi: “to‘ymoq”, “do‘st diydoriga to‘ymoq”, “el – yurtga ziyofat bermoq”.

Nikoh to‘ylarida aytiladigan “Yor-yor”larda turmushga chiqayotgan qizning ta‘rifi, ota-onasining orzu-umidlari, nasihatlar aks ettiriladi.<sup>4</sup>

Ko‘chada qator-qator aravalar chopishib, bir-birlaridan o‘zishi, o‘n-o‘n besh aravaga to‘lg‘on xotinlarning tartibsiz “yor-yor”lari dunyoni buzib, ko‘kni ko‘tarib

<sup>1</sup> N.Karimov. XX asr O‘zbek adabiyot tarixi. Toshkent. O‘qituvchi nashriyoti. 1999. – 195 b.

<sup>2</sup> <https://conferencepublication.com/> Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romaniga asos bo‘lgan hikoya haqida.

<sup>3</sup> Abdulhamid Cho‘lpon. Qor qo‘ynida lola. Hikoyalar. – Toshkent: “Ziyo nashr”, 2023. – 126 b. (Keltirilgan parchalar shu to‘plamdan olindi).

<sup>4</sup> M.Murodova.Folklor va etnografiya.”Aloqachi” nash.Toshkent-2008.39-b.

borishi haqida gapirilgan. “Sandiq, ko‘rpa, gilam, tugun va boshqa narsalar yuklagan va yuklar ustiga yana bitta-ikkita kampir o‘tqizgan aravakashlar ilgarigilardek bir-birlari bilan basma-baslashib chopishar edilar. Shu guldir-sholdir, shovqin-suron, qiy-chuv bilan ketayotqon ko‘ch eng so‘ng eshonning eshigiga yaqinlashadi. Ko‘chaning o‘rtasig‘a gurullatib yoqilg‘on, alangasi osmong‘a chiqqon o‘tning tegrasiga to‘plang‘on bir to‘p erkaklar tovushlarining boricha “yor-yor”ni cho‘zg‘on; ularning berigi biqinida boshiga paranji yoping‘on, chopon tashlag‘on, ro‘mol tutg‘on xotinlar, kelinlar, qizchalar... o‘z oldilarig‘a katta to‘p bo‘lib, ular ham “yor-yor”ni qo‘yib yuborg‘on edilar.

Nikoh to‘ylarida aytiladigan “Yor-yor”larda turmushga chiqayotgan qizning ta‘rifi, ota-onasining orzu-umidlari, nasihatleri aks ettiriladi.

Ko‘rinadiki, ushbu parchada kelinni kuyovnikiga olib kelish jarayoni va bu vaziyatda “yor-yor” qo‘shig‘ini kuylash an‘anasi qalamga olingan. Bir band yo-yo namunasi ham keltirib o‘tilgan:

Taxta-taxta ko‘pukur taxting bo‘lsin, yor-yor,  
Payg‘ambarning qizidek baxting bo‘lsin, yor-yor!  
Uzun-uzun arg‘amchi halunchakka yor-yor,  
Chakan ko‘nglak yarashar kelinchakka yor-yor.

Shundan so‘ng adib kelin kelganda gulxan yoqilishi va uning atofidan kelinni aylantirish odatini tasvirlagan: “O‘tning tegrasiga to‘plang‘on er-xotin barchasi birdan: “Kelin keldi, kelin keldi!” deb yuborishdilar. Bir necha yigit quchoq-quchoq g‘o‘zapoya olib chiqib, o‘tning o‘rtasig‘a tashladilar, o‘t yana kuchaydi, yana alanga berdi. Har kim pitirlab qimirlab qoldi. Bolalar qiz kelayotg‘on tomong‘a qarab chopishib ketdilar. Shovqin, to‘polon orasida aravalar yetdilar. Xalq orasida: “Ana kelin, ana qiz tushgan arava!” degan gaplar boshlandi. Aravakash kelinli aravani “namoyishkorona” bir suratda o‘tning o‘rtasidan otni qamchilag‘oncha olib o‘tib, eshikka yaqin bir yerda to‘xtadi. “Kuyov pochcha, kuyov pochcha! Taqsirim qanilar? Qoch, qoch”, – degan tovushlar ko‘tarildi.

Adib kuyovni, uning kuyovlik kiyimini, o‘zini tutishini quyidagicha tasvirlaydi: “Bir vaqt oppoq soqolli, qari, bo‘shashg‘on bir chol (kuyov to‘ra) ustiga zarbob to‘n kiyib, katta o‘rama bel-boq bog‘lag‘oni holda birmuncha oqsoqol muridlari o‘rtasida sekingina sudralib aravaga yaqinlashdi. Yana xalq o‘rtasida:

– Ko‘taring-a, kuyov pochcha, ko‘taring-a!  
– O‘zingizni tetik tuting, taqsir!  
– Ha, taqsir, ko‘taring!

Chol titrak qo‘llarini aravaga uzatib, qizni ko‘tardi va bir-ikki odum bosg‘ondan so‘ng yerga qo‘ydi.

Yana xalq chuvirlashib ketdi:

- Barakalla, taqsir, barakalla!
- Bo‘sh kelmadilar taqsirim!
- Hali bellari baquvvat ekan taqsirimning!

Bu shovqin, qiy-chuv, to‘polon yarim kechaga borib to‘xtadi.

Xullas, mazkur hikoya to‘rt qismga ajratilgan bo‘lib, uning uchinchi qismi ikkita – to‘y arafasi va to‘y epizodlarini o‘z ichiga olgan. Cho‘lpon bu o‘rinda omma orasida nikoh to‘yi marosimiga oid jihatlarga diqqatni tortgan. Garchi hikoyada mahalla ahli go‘yo to‘yda hech narsa bo‘lmaganday yayrayotgani, ya’ni “qator-qator aravalarning aravakashlari ilgarigilardek bir-birlari bilan basma-baslashib chopishayotgani, xotirlarning tartibsiz “yor-yor”lari dunyoni buzib, ko‘kni ko‘tarib borishi, guldirsholdir, shovqin-suron, qiy-chuv bilan ketayotgan ko‘ch, gurullatib yoqilgan olov alangasi osmonga chiqqani” tasvirlansa-da, aslida yor-yor ijrosida tartibsizlikning ta’kidlanishi, yoqilgan olov alangasining ko‘kka o‘rlashi majbuan turmushga uzatilayotgan qizning hayoti izdan chiqqanini, qalbidagi hasrat o‘tining kuchini anglatadi.

Hikoyaning to‘rtinchi qismida ikki yigitning ko‘chada to‘y to‘g‘risida gapirishi, qorovulning ham ularga qo‘shilishi ham shunchaki emas. Chunki xalq orasida o‘tgan har bir to‘y mana shunday muhokama qilinishi hayotiy hodisadir. D.Quronov ham bu haqda to‘xtalib: “To‘y-to‘ylab yayragan mahalla yigitlaridan ikkitasi eshonni, qizning otasini ayblab so‘zlaydilar. Ya’ni ular endi olomondan ajralib, voqeani alohida bir inson, shaxs sifatida mushohada qila boshladilarki, uning risolaga mutlaqo to‘g‘ri kelmasligi haqidagi ilgarigi qarashlari xotirlariga keldi. Yana bir muhim jihati shuki, ularning (ya’ni mahalla ahlining) voqea haqidagi oxirgi xulosasi sifatida Mamat qorovul aytgan “Nimasini aytasiz, yigitlar, dunyo o‘zi shunday teskari dunyo ekan... Lolaning ustiga qor yog‘di!..” degan gap yangraydi (bunga yigitlar javob bermaydilar, sukut – alomati rizo). Albatta, bu gap qizga achinishni ifodalaydi, biroq shu bilan birga uning zamirida aybni o‘zlaridan soqit qilish, aybdorlik hissidan qutulishga intilish yotgani ham shubhasiz. Hikoyada ayni shunday hayotiy pozitsiya “ko‘nikilganlik”ni vujudga keltiruvchi asosiy omil sifatida talqin qilinadi”, – deydi.<sup>1</sup>

---

<sup>1</sup> <https://quronov.uz>

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

- 1.N.Karimov. XX asr O‘zbek adabiyot tarixi. Toshkent. O‘qituvchi nashriyoti. 1999. – 195 b.
- 2..<https://conferencepublication.com/> Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romaniga asos bo‘lgan hikoya haqida.
- 3.Abdulhamid Cho‘lpon. Qor qo‘ynida lola. Hikoyalar. – Toshkent: “Ziyo nashr”, 2023. – 126 b. (Keltirilgan parchalar shu to‘plamdan olindi).
- 4.M.Murodova. Folklor va etnografiya.”Aloqachi” nash.Toshkent-2008.39-b.
- 5.<https://quronov.uz>